



O'QUVCHI VA O'QITUVCHILAR NUTQIDAGI SHEVA TA'SIRI NATIJASIDAGI XATO VA KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH – PEDAGOGIKMUAMMO

Buranova Sh.M.

Nukus DPI, O'zbek tili kafedrasida pedagogika fanlari nomzodi dotsent

Kurbanbayev O.H.

Nukus DPI, O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: nutqiy, imloviy, kompetensiya, dialektal, unli va undosh tovushlar singormanzim, qiyosiy tahlil, fonetik qonuniyat, metodik asos, tamoyil, zamonaviy tendensiya, til meyorlari.

Ключевые слова: речь, правописание, компетентность, диалектные, гласные и согласные звуки, сингорманизм, сопоставительный анализ, фонетический закон, методическая основа, принцип, современная тенденция, языковые нормы.

Key words: speech, spelling, competence, dialect, vowels and consonants, singormanzim, comparative analysis, phonetic law, methodological basis, principle, modern trend, language norms.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada ta'lim berishda o'qituvchilar faoliyatida yo'l qo'yiladigan nutqiy dialektal xatolar shuningdek o'quvchilar nutqidagi mavjud jiddiy nutqiy xatolar hamda ularni bartaraf etishning metodik asoslari haqida ma'lumot keltiriladi. Mavjud holatning tahliliy xulosalari haqida fikr mulohazalar beriladivamisollarasida izoxlanadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлена информация о диалектных речевых ошибках, допущенных преподавателями при обучении, а также о серьезных речевых ошибках в речи учащихся и методических основах их устранения. Аналитические выводы сложившейся ситуации комментируются и поясняются на примерах.

SUMMARY:

This article provides information about dialect speech errors made by teachers during teaching, as well as serious speech errors in students' speech and the methodological basis for eliminating them. The analytical conclusions of the current situation are commented on and explained with examples.

Jahon miqyosida integratsiyalashuv jarayoni jadallashayotgan ayni vaqtda ona tillarni asrash va o'qitish masalalari muhim vazifaga aylanib bormoqda. Barcha tillarda o'qitish tamoyillari zamonaviy tendensiyalarni o'z amaliyotida sinab ko'rmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or o'qitish uslublari



ommalashmoqda. Ona tili ta'limi har bir millatning taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi muhim omildir, agar barcha sohada ilmiy renessansni amalga oshirmoqchi bo'lsak, buni ona tili ta'limini takomillashtirishdan boshlash kerak. Mamlakatimizda ham ona tilini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi ona tili o'quv predmetiga doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, xususan, o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan bir bo'lib turibdi. Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashish, xususan, o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarni odatga aylantirish uchun ona tili ta'limiga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish zarurati mavjud. Shuningdek ta'lim berish jarayonida ona tili o'qituvchilarining ham kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish nutqiy ko'nikmalari ustida ishlashga tizimli yondashish ham dolzarb muammolardandir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili dasturida; "Ona tili" ta'limining bosh maqsadi – og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Ma'lumki ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim sanaladi. DTSda alohida ta'kidlangan bu maqsad, vazifalarga o'quvchilarning imloviy xatolari sirasidagi nodialektal va dialektal xatolar muayyan darajada salbiy ta'sir qiladi. Ma'lumki, bugunki kun maktab ona tili darsliklari asosan, muloqat qilishni, izlanish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga, tanqidiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, mazkur darsliklarning asosiy o'zagini avvalgidek grammatik qoidalar emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub (badiiy, axborot, publitsistik, ilmiy-ommabop va boshqalar) hamda shakl (to'liq matn, infografika, jadvallar, diagramma va boshqalar) jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Darsliklardagi deyarli barcha mashqlar matn asosida tuzilgan

bo‘lib, o‘quvchilarda matnни tushunish, matn yaratish ko‘nikmalarini, tanqidiy va ijodiy fikrlash, shuningdek, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘rganiladigan til qoidalari ham tizimli tarzda emas, balki matnlar asosida beriladi (matnda uchrashiga qarab) beriladi. Aksariyat hollarda ortiqcha terminalogiyadan holi tarzda beriladi. Amaldagi darsliklarning yuqorida ta‘kidlangan shaklda yaratilganligi va bugungi kunda ta‘limda amalda bo‘lib kelayotganligiga ko‘plab o‘qituvchilar va ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan e‘tirozlariga darslik mualliflari Ona tili bo‘yicha milliy darsliklarda ustun bo‘lgan tilning tuzilishini (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika) izchil o‘rganish tilshunoslik bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun zarurdir. Biroq tilshunos kadrlar tayyorlash umumta‘lim maktabining vazifasi emas. Maktabdagi til ta‘limining (ona tili va boshqa tillarning) vazifasi o‘quvchini turli muloqot vaziyatlarida tildan to‘g‘riva samarali foydalanishga o‘rgatishdir. Buning uchun o‘quvchi hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan og‘zaki, yozma va vizual matnlarning har xil turlarini tushunishi, o‘z fikrlarini boshqalarga etkazish uchun matnlar (og‘zaki, yozma, vizual) yaratishiva dialogda (polilogda) qatnashishi, axborotni qidirish, topish, solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini egallashi zarurdir” deb ta‘kidlab asoslab berishga harakat qilishdi. Darslik mualliflarining fikrlari jamiyatimiz ta‘lim tizimi oldiga qo‘yadigan talab va vazifalarni amalga oshirishda qaysidur ma‘noda asoslidir. Shu o‘rinda ta‘kidlashimiz kerakki, mazkur maqolamizda biz amaldagi yangi avlod darsliklaridagi mavjud xato va kamchiliklar xususida fikr muloxaza yurutmoqchi emasmiz. Shunchaki ona tili darslarida o‘quvchilar til qoidalarini tizimli tarzda emas, balki matnlar asosida o‘rganishlari, vadarslikmualliflarining “Ona tili bo‘yicha milliy darsliklarda ustun bo‘lgan tilning tuzilishini izchil o‘rganish tilshunoslik bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun zarurdir” deb ta‘kidlashgan fikrlari bizni chuqur ilmiy mushohada yuritishimizga, taxlil va kuzatishlar olib borishimizga sabab bo‘ldi.

Darhaqiqatki, ona tili ta‘limi orqali garchand “tilshunos kadrlar tayyorlash umumta‘lim maktabining vazifasi emas” deb e‘tirof etilsada, o‘zbek adabiy tili meyorlarini puxta egallash, grammatik jixatdan og‘zaki va yozma savodli nutq soxiblarini tarbiyalash, go‘zal nutqqa egabo‘lgan madaniyatli kishilarni tayyorlash umumta‘lim maktablarining shu jumladan ona tili ta‘limi oldidagi muhim vazifa sanaladi. Mazkur fazifani amalga oshirish shubhasizki, ona tili va adabiyoti o‘qituvchulari zimmasidagi burchdir.

Maktab ona tili ta‘limini egallagan maktab bitiruvchisi hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan og‘zaki, yozma va vizual matnlarning har xil turlarini tushunishi, o‘z fikrlarini boshqalarga etkazish uchun matnlar (og‘zaki, yozma,



vizual) yaratishi va dialogda (polilogda) qatnashishi, axborotni qidirish, topish, solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini ega bo'lishi zarur deb hisoblansa, mazkur ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun qaysidir ma'nodaona tili darslarida o'quvchilar til qoidalarini tizimli tarzda o'rganishlari kerakdir degan fikrga keldik. Albatta biz tilshunoslikni akadem grammatikasini o'rganishlari zarur degan fikrdan yiroqmiz.

Ona tili darslarini kuzatishlarimiz natijasida Xorazm viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtkul Beruniy tumani, shahar va qishloq maktablarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida mavjud bo'lgan jiddiy dialektal xatolarning takrorlanayotganligini uchratyapmiz. Dars jarayonida o'quvchilar og'zaki, yozma va vizual matnlarning har xil turlarini tushuni b uni og'zaki tarzda bayon qilishlarida, o'z fikrlarini boshqalarga etkazishda matnyaratishda axborotni solishtirish va tahlil qilishda tanqidiy fikr muloxazalar bildirishlarida aftomatik tarzda miyasidagi fikr mahsuli sheva ta'siriga uchrayapti. Bunday holatlarning Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtkul Beruniy tumani, shahar va qishloq maktablarida o'g'uz lahjasiga mansub o'quvchilarning og'zaki nutqida takrorlanib borishiga ona tili darslarida o'quvchilar til qoidalarini tizimli tarzda o'rganishmayotganligidadir deb hisobladik. Ona tilini o'qitishda o'zbek adabiy tilidagi ba'zi tovush, so'z va morfemalar o'quvchilar shevasiga mos kelmaydi: -ti / to', -a, -g'a, -tan, -nen kabi kelishik qo'shimchalari (-ni, -ga, -dan); minan, g'o', g'uy (bilan, ku, gin) kabi yordamchi so'zlar: qareli, zangi, qumirsqa / qarinja kabi leksik dialektik tizimlar Beruniy shevasi o'quvchilari nutqiga xos so'zlardir. Demak, "Ona tili" fanidan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchining nutqidagi shevaga xos qo'shimchalar, so'z shakllari o'rniga adabiy tilning me'yoriy shakllarini muttasil singdirib borish ham maktabda ona tili ta'limining bosh maqsadlari, vazifalari tarkibiga kiradi. Afsuski, imloni o'rgatish va nutq o'stirish imloviy savodxonlikka salbiy ta'sir ko'rsatgan yuqorida ta'kidlanganlar, deyarli, e'tiborga olinayotgani yo'q. Ta'kidlash joizki, orfografik yozuvda bir xillikni ta'minlashga qaratilgan bir tizim bo'lib, tildan foydalanuvchi kishi, albatta, bunga rioya qilishi lozim. Chunki chalasavodlarcha yozilgan xat o'qish va tushunishni qiyinlashtiradi. Shu xildagi nutqning mazmunini o'qish ham qiyin bo'ladi. Ayni maqsadda savodxon, nutq madaniyati sohiblarini tarbiyalashda, avvalo, o'quvchilar nutqidagi fonetik, leksik, morfologik, dialektizmlarni ilmiy-metodik va amaliy maqsadlarda qunt bilan bilan o'rganib, ta'limda ularni bartarf qilishning samarali usullaridan foydalanish davr taqozosi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ona tili" o'quv fanini o'qitishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu muammo asosan Xorazm viloyati hududlarida keng tarqalgan bo'lib, bunga hudud aholisining

sheva elementlaridan chiqolmasligi sabab bo‘lmoqda. Kuzatishlar davomida shuni ko‘rishimiz mumkinki, maktablarda darslar asosan shu hudud shevasida olib boriladi. O‘quvchilarga sabzi deyish o‘rniga “gashir”, narvon deyish o‘rniga “zangi” deb o‘gatiladi. Fonetik jihatdan ham so‘zlar farq qilgani uchun –k tovushini –g ga monand aytilishi, -q ni –k deb talaffuz qilish o‘quvchi bilan birgalikda, o‘qituvchilarning ham to‘g‘ri nutq pozitsiyasidan adashtirmoqda.

E’tirof qilish lozimki, o‘zbek tilida hamma vaqt ham bir xilda so‘zlashuvchi kishilarning juda katta hududda joylashganligi, tabiiy holda ulni yozuv va munosabatda turlicha holga olib keladi. Shunday ekan, maktab ta’limida bu muhim faktni - yillaro‘tsada dolzarb bo‘lgan mazkurmasalani tilga olmaslik mumkin emas.

Qonuniyki, maktab ta’limdan boshlanadi. Shu maqsadda yangi dastur va darsliklarda “Shevaga xos so‘zlar” mavzusining berilishi ayni muddaodir. Milliy dastur asosida yaratilgan darsliklarda til o‘rganish matn tahlili asosida o‘rgatilar ekan ayni mavzuni o‘rgatishda matn tahlili asosida maktab hududida shevaga xos so‘zlar xususida tushuncha berilgach, adabiy va shevaga xos so‘zlarning qiyosiy tahlili, matndagi shevaga xos so‘zlarning izohi talab qilinadi. Qiyosiy tahlillar natijasida o‘quvchi sheva so‘zlarining adabiy tildan farqlay olishga o‘rganishlari ijobiy va samaralidir albatta. Shu o‘rinda maktab darsliklarida o‘quvchi o‘zi yashab turgan joyda talaffuzi adabiy tildan farqlanuvchi so‘zlarni ro‘yxat qilish o‘quv topshirig‘ini kiritish maqsadga muvofiq sanalgan bo‘lar edi degan fikrdamiz. Bu maqsadga erishmoq uchun maktabda o‘zbek tilining fonetika, leksikologiya, morfologiya kabi sathlarini o‘qitishda imloni o‘rgatish va nutq o‘stirish masalasiga ustuvor o‘rin berilmog‘i lozim.

Ta’kidlash joizki, bu masalaga etarli e’tiborsizligimizdan o‘quvchilar nutqida turfa imloviy xatolar uchrashadi. Fikrimizcha, ularning aksariyatiga o‘zbek imlosi bilan adabiy talaffuz va sheva xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar sababligidir. Masalan, A<O, O<A unlilaridagi, B<P, D<T undoshlaridagi imloviy xatolar: jahon-johon, qoror-qaror, maktab-maktap kabilar.

Bunday imloviy xatolarning o‘quvchilar nutqida ko‘plab uchrashi, uzoq yashashiga ob’ektiv va sub’ektiv sabablari bor, albatta. Ob’ektiv sababi shundaki, o‘quvchi yashab turgan hudud shevasi, shubhasiz, adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik me’yorlariga to‘lalig‘i bilan mos kelavermaydi. Sub’ektiv sabab esa kichik yoshdagi bolalar tarbiya maskanlaridanoq boshlang‘ich ta’lim va tayanch ta’limda o‘zbek adabiy tilining imloviy, talaffuziy me’yorlariga e’tibor bermaslikdir.

Shuningdek, tayanch ta’lim bosqichining faqat 5-sinflarida «Shevaga xos so‘zlar» mavzusini o‘qitish, darslikda bu mavzuga berilgan 2-3 mashqni ishlatish



bilan kifoyalani b qolish; Shu mavzuni o'tishda mahalliy sharoitni hisobga olmaslik, ijodiy o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish va ayni hududga mos badiiy matnlardan namunalar saralay olmaslik oqibati ham o'quvchilarning imloviy savodxonligiga salbiy ta'sir qiladigan shevaga xos xatolarning paydo bo'lishi, o'quvchi nutqida mustahkam o'rnashib qolishining sababchisidir.

E'tirof qilish joizki, shevaga xos xatolar, avvalo o'quvchining og'zaki nutqida paydo bo'ladi. Bolada atrofdagilar bilan muloqat qilishning boshlanishidanoq u oiladagilar, mahalladagilar bilan fikr almasha boshlaydi. Ayni shunday ob'ektiv qonuniyatga ko'ra bolaning nutqida hali u maktabga kelmasidanoq mahalliy shevaning talaffuz me'yorlari, leksik, morfologik xususiyatlari shakllanadi. Ular o'quvchining nutqida uzoq saqlanib qoladi. Demak, shu asosda shevaga xos talaffuziy va imloviy xatolar sodir bo'ladi. Ikkinchidan, o'quvchilarda grammatik, talaffuziy malakalarning shakllanmaganligi ham shevaga xos xatolarni keltirib chiqaradi.

O'quvchi odatlanib qolgan mahalliy talaffuzga itoat qilib, qanday eshitsu, shunday yozishga o'rganib qoladi va natijada shevaga xos imloviy xatolar paydo bo'ladi. Mazkur ob'ektiv holatga o'qituvchilar sababchidir deb hisobladik

Demak, dialektal xatolarning bartaraf qilishda to'la savodxonlikka erishish uchun, avvalo, talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf qilmoq lozim. Shu maqsadda dialektal sharoitda ona tilining har bir bo'limini o'qitishda, ayniqsa, Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston, shu jumladan, Beruniy tumani maktablarida o'quvchilarning orfoepik malakalarini takomillashtirishga e'tibor bermoq kerak. Bu o'zbek imlosining mukammal o'zlashtirishning garovidir. Ayni ma'noda fonetikani o'qitish o'ziga xos ahamiyatga molik chunki, fonetikaga oid nazariy bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda orfografik malakalar hosil qilinadi

Xullas, har bir o'qituvchi o'z sharoitidan, aniqrog'i, maktab hududi shevasining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib, yuqoridagi topshiriqlar ustida ishlay borsa, shubhasiz, shevaga xos xatolar muayyan darajada bartaraf qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. -14-6.
2. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 160b.
3. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.
4. G'ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011, 188 b.
5. To'xtamirzayev M. Nutq o'stirishda muloqotning roli. «Til va adabiyot ta'limi», 1991, 9-son.
6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, «O'qituvchi», 1991.